TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.1.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YULDASHEV GOLIBJON TURGUNOVICH

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 338.45:677-048.78(575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical sciences

Yuldashev Golibjon Turgunovich
To‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish 3

Yuldashev Golibjon Turgunovich
Совершенствование механизмов повышения экономического потенциала предприятий текстильной промышленности 27

Yuldashev Golibjon Turgunovich
Improving mechanisms to enhance the economic potential of textile industry enterprises 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 57

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.1.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YULDASHEV GOLIBJON TURGUNOVICH

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt3992 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ismailov Akmal Maxsudovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Muratova Shohista Nimatullayevna** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Xakimov Ziyodulla Axmadovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.23.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "2" 12 soat 16-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-27-23, e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2218 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" 11 kuni tarqatildi.

(2026-yil "16" 11 dagi № 36 raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.E. Sindarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.S. Kuchkarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati ishlab chiqarish, bandlik, xalqaro savdo va global qiymat zanjirlarining muhim tarkibiy qismi sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining 2025-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, global kiyim-kechak sanoatining iqtisodiy ko‘lami qariyb 1,77 trln. AQSh dollarini tashkil etib, mazkur tarmoqda dunyo bo‘yicha 90 mln. nafardan ortiq ishchi band hisoblanadi[1]. Jahon savdo tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda jahon tovar savdosi qiymati 2 foizga o‘sgan bir sharoitda to‘qimachilik mahsulotlari savdosi 1 foizga, kiyim-kechak mahsulotlari savdosi esa 3 foizga oshgan[2]. Ushbu tendensiyalar tarmoqdagi raqobat ustunligi ishlab chiqarish hajmining kengayishi bilan bir qatorda, resurslardan samarali foydalanish, texnologik modernizatsiya, raqamlashtirish, ekologik barqarorlik va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarining rivojlanish darajasiga ham tobora ko‘proq bog‘liq bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Jahon to‘qimachilik bozorida raqobat muhitining keskinlashuvi, energiya resurslari narxining o‘zgaruvchanligi, logistika xarajatlarining oshishi, ekologik standartlar va barqaror ishlab chiqarish talablarining kuchayishi korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholash va oshirishga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bunda faqat ishlab chiqarish quvvatlarini ko‘paytirish yetarli emas, korxona moliyaviy barqarorligi, asosiy fondlarning texnik holati, mehnat unumdorligi, innovatsion faollik, raqamli boshqaruv, resurs tejamkor texnologiyalar va bozorga moslashuvchanlik o‘zaro uyg‘un mexanizm sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida energiya va suv sarfini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish va xalqaro standartlarga muvofiq faoliyat yuritish to‘qimachilik korxonalarining uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantiruvchi omillardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham to‘qimachilik sanoati muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Xususan, 2024-yilda to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 2,867 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Bu jami eksportning 10,6 foizidir. 2025-yilda esa to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 2,1 mlrd. AQSh dollariga yetib, eksport tarkibida tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ulushi 51,4 foizni, ip-kalava ulushi 28,5 foizni tashkil qilgan. Shu bilan birga, 2025-yilda respublikada 58,5 trln. so‘mlik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich jami sanoat ishlab chiqarishining 8,9 foizini tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichlar tarmoqda o‘sish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatsa-da, tahlillar mazkur tarmoq eksporti tarkibi, ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik yangilanish va resurs tejamkorlik yo‘nalishlarida muammolar mavjudligini ko‘rsatib, bu borada chuqur ilmiy tadqiqotlarni taqozo etmoqda. Yuqoridagilar mazkur tadqiqotning bugungi kundagi muhim masalalarga bag‘ishlanganligi va uning dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

[1] International Labour Organization (ILO) (2025) The Heat Is On: How Heat Stress Impacts the Apparel Industry, Jobs, and Worker Health. Geneva: International Labour Organization. DOI: 10.54394/CGWS6514.

[2] World Trade Organization (WTO) (2025) Global Trade Outlook and Statistics: April 2025. Geneva: World Trade Organization, p. 8.

to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-dekabrdagi 733-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyati, strategik boshqaruv, korxona resurslaridan samarali foydalanish va raqobat ustunligini shakllantirish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlar I. Ansoff, P.F. Druker, R.Kaplan, D.Norton, T.Kouplend, T.Koller, Dj.Murrin, Sun-szi[3] va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Ushbu olimlar asarlarida korxona strategiyasi, boshqaruv samaradorligi, qiymat yaratish, natijaviylikni baholash, muvozanatlashgan ko‘rsatkichlar tizimi va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlash masalalari nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida korxonalar iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish quvvatlari, moliyaviy tahlil, strategik rejalashtirish va korxona resurslarini baholash masalalari V.M. Arxipov, S.B. Barngols, I.N. Bogataya, M.I. Buxalkov, Ye.V. Joglina, L.Yu. Ilina, G.B. Kleyner, V.V. Kovalev, R.V. Marushkov, B.A. Rayzberg, G.V. Saviskaya, L.S. Sosnenko, N.K. Temnova, A.D. Sheremet[4] va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ularning ilmiy

[3] Ансофф И. Новая корпоративная стратегия (The New Corporate Strategy). – Питер, 1999. – 416 с.; Друкер П.Ф. Менеджмент. Вызовы XXI века. – М.: “Манн, Иванов и Фербер”, 2012. – 256 с.; Каплан Р., Нортон Д. Организация, ориентированная на стратегию. Как в новой бизнес-среде преуспевают организации, применяющие сбалансированную систему показателей: пер. с англ. – М.: ЗАО “Олимп-Бизнес”, 2005. – 416 с.; Коупленд Т., Коллер Т., Муррин Дж. Стоимость компаний: оценка и управление: пер. с англ. – М.: ЗАО “Олимп-Бизнес”, 2008. – 576 с.; Сунь-сзы. Искусство стратегии. Классические труды / пер. с кит., предисловие и комментарии Н.И. Конрада. – М.: Эксмо; СПб.: Мидгард, 2006. – 528 с.

[4] Архипов В.М. Проектирование производственного потенциала объединений (теоретические аспекты). – Л.: Изд. ЛГУ, 2009. – С. 75–89; Барнголс С.Б. Экономический анализ хозяйственной деятельности на современном этапе развития. – М.: Финансы и статистика, 1984. – 214 с.; Богатая И.Н. Стратегический учет собственности предприятия. – Ростов н/Д.: “Феникс”, 2001. – 320 с.; Бухалков М.И. Внутрифирменное планирование. – М.: ИНФРА-М, 2000. – 392 с.; Жоглина Е.В. Согласование механизмов управления развитием экономического потенциала: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – Ставрополь, 2008. – 26 с.; Ильина Л.Ю. Совершенствование системы планирования снабжения предприятий легкой промышленности в условиях стратегических изменений: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – Кострома, 2014. – 197 с.; Клейнер Г.Б., Тамбовсев В.Л., Качалов Р.М. Предприятия в нестабильной экономической среде: риски, стратегии, безопасность. – М.: Экономика, 1997. – 288 с.; Ковалев В.В. Финансы организаций (предприятий): учебник. – М.: Проспект, 2010. – 352 с.; Марушков Р.В. Оценка использования экономического потенциала предприятия (на примере предприятий печатной отрасли): автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2000. – 20 с.; Райзберг Б.А. Государственное управление экономическими и социальными процессами. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 384 с.; Савицкая Г.В. Теория анализа хозяйственной деятельности: учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 288 с.; Сосненко Л.С. Анализ экономического потенциала действующего предприятия. – М.: Экономическая литература, 2004. – 208 с.; Темнова Н.К. Экономическая динамика текстильных предприятий: теоретические, методологические и прикладные аспекты: автореф. дис. ... д-ра экон. наук. – Иваново, 2009. – 48 с.; Шеремет А.Д. Методика финансового анализа / А.Д. Шеремет, Р.С. Сайфулин. – М.: ИНФРА-М, 1996. – 172 с.

yondashuvlarida iqtisodiy salohiyatni shakllantiruvchi resurslar, ularning aylanishi, moliyaviy natijalarga ta’siri, ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish va tahlil qilish usullari muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda sanoat va to‘qimachilik tarmoqlarini rivojlantirish, korxonalar iqtisodiy salohiyatini oshirish, raqobatbardoshlik, klasterlashuv va eksport imkoniyatlarini kengaytirish masalalari I.I. Iskandarov, S.S. G‘ulomov, M.L. Tursunxodjaev, A.Sh. Bekmurodov, M.R. Boltaboev, B.T. Salimov, N.M. Maxmudov, A.M. Qodirov, M.Q. Pardaev, R.I. Nurimbetov, A.U. Burxanov, A.A. Tillyaxodjaev, G.G‘. Umarova, A.M. Ismailov[5] va boshqa mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda sanoat korxonalarining tarmoq xususiyatlari, to‘qimachilik mahsulotlari raqobatbardoshligi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, marketing va eksport faoliyatini rivojlantirishga doir muhim ilmiy xulosalar berilgan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini bir vaqtning o‘zida nazariy-uslubiy baholash, statistik va ekonometrik tahlil qilish, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida modellashtirish hamda prognoz ssenariylari orqali asoslash masalalari yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Ayniqsa, korxonalar iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi omillarni tarmoq ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda baholash, resurs tejamkorlik va ekologik samaradorlikni iqtisodiy salohiyat tarkibiy qismi sifatida qarash, shu asosda amaliy mexanizmlar ishlab chiqish zarurati mazkur dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatining mazmuni, tarkibiy elementlari va uni oshirishning nazariy jihatlarini ilmiy asoslash;

---

[5] Искандаров И.И. Экономические проблемы развития текстильной промышленности в Узбекистане: автореф. дис. ... д-ра экон. наук. – Т., 1969; G‘ulomov S.S., Alimov R.X., Salimov B.T. Mikroiqtisodiyot: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: Sharq, 2001. – 320 b.; Турсунходжаев М.Л. Хозяйственная реформа на промышленных предприятиях: монография. – Т.: ФАН, 1968; Бекмуродов А.Ш., Янг Сон Бе. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: кластерный подход: монография. – Ташкент: ТГЭУ, 2006. - 112 с.; Boltabaev M.R. O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: iqt. fan. dokt. diss. avtoref. – Toshkent: TDIU, 2005. – 35 b.; Махмудов Н.М. Моделирование производственно-экономических процессов хлопкоперерабатывающих отраслей: автореф. дис. ... д-ра экон. наук. – Т.: ТГЭУ, 1993; Кадыров А.М. Инновационный потенциал развития промышленных предприятий республики в условиях рынка // Новое качество экономического роста: инновации, конкурентоспособность, инвестиции: научно-практическая конференция. – Т., 23 апреля 2008 г.; Abdukarimov I.T., Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2003. – 6 b.; Burxanov A.U. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari // “Biznes-ekspert”. – Toshkent, 2016. – №3. – B. 3-8.; Tillyaxodjaev A.A. O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini innovatsion rivojlantirish masalalari // Biznes – ekspert. 2024. – № 1–2 (193–194). –b. 62-72.; Umarova G.G‘. To‘qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarida eksport salohiyati oshishining milliy iqtisodiyotdagi roli // Biznes-ekspert. – T.: 2016. – №12(108). B. 48-59; Ismailov A.M. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarish uslubiyotini takomillashtirish: iqt. fan. dokt. diss. avtoref. – Toshkent: TAQI, 2023. – 75 b.

sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘yicha mavjud nazariy va uslubiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish;

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va ulardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

respublika iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoatining o‘rni, tarmoqning rivojlanish tendensiyalari va asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyati ko‘rsatkichlari dinamikasini statistik tahlil qilish va ularning o‘zgarish xususiyatlarini baholash;

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar asosida baholash;

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlarni ishlab chiqish;

to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish bo‘yicha prognoz ssenariylarini ishlab chiqish va ularning amaliy ahamiyatini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi sanoat korxonalarining iqtisodiy faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti to‘qimachilik sanoati tarmog‘i va tarmoq korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, baholash usullari, boshqaruv mexanizmlari hamda resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tizimli tahlil, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, indeks usuli, korrelyatsion-regression tahlil, ekonometrik modellashtirish, omilli tahlil, ekspert baholash, ssenariyli prognozlash va grafik-tahliliy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash uslubiyotini qiymat zanjiri bo‘yicha qo‘shilgan qiymatni chuqurlashtirish darajasi, resurslar transformatsiyasi samaradorligi hamda ishlab chiqarish bosqichlaridagi funksional uzilishlarni aniqlash mezonlari asosida takomillashtirilgan;

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini baholash uslubini resurs salohiyati indeksi (*R*), texnologik salohiyat indeksi (*T*), moliyaviy salohiyat indeksi (*M*), kadrlar salohiyati indeksi (*K*), bozor salohiyati indeksi (*B*) va barqarorlik salohiyati indeksi (*BS*)larini yagona integral ko‘rsatkich sifatida ifodalovchi normallashtirish hamda vaznli agregatsiyalash asosida “To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksi”ni hisoblash, shuningdek iqtisodiy salohiyat darajalarini “kritik daraja” (0,0 - 0,20], “past daraja” (0,20 - 0,40], “o‘rta daraja” (0,40 - 0,60], “barqaror daraja” (0,60 - 0,80] va “yuqori daraja” (0,80 - 1,00] mezonlari bo‘yicha tasniflash taklif etilgan;

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmini iqtisodiy salohiyatning resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar, bozor va barqarorlik bloklarini TSISII integral indeksi orqali baholash, ekonometrik tahlil asosida ustuvor omillar ta’sirini aniqlash hamda iqtisodiy salohiyatning zaif bloklariga moliyaviy, texnologik, kadrlar va bozor resurslarini CASCADE qayta taqsimlash mexanizmi asosida yo‘naltirish bo‘yicha ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik sanoati tarmog‘ining iqtisodiy salohiyatini prognozlash modelini asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar vaqt qatorlarining trend, sikllik va tasodifiy komponentlarini hisobga olgan holda 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish ssenariylari shakllantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirilgan va ularni amaliyotda qo‘llash yo‘nalishlari taklif etilgan;

tarmoq korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy choralar ishlab chiqilgan;

korxonalarda resurs tejamkor texnologiyalar, energiya samaradorligi, raqamli boshqaruv va monitoring, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirish yo‘nalishlari asoslangan;

iqtisodiy salohiyatni oshirish bo‘yicha prognoz ssenariylaridan strategik rejalashtirish, investitsion qarorlar qabul qilish va tarmoq rivojlanish dasturlarini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatlari belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi iqtisodiy nazariya va sanoat iqtisodiyotiga oid ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish, rasmiy statistik ma’lumotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, to‘qimachilik sanoati rivojlanishiga oid axborot manbalari, shuningdek, statistik va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilganligi bilan izohlanadi. Xulosa va takliflarning asoslanganligi tadqiqot vazifalariga muvofiq tanlangan usullar, ko‘rsatkichlar dinamikasining tahlili, omillar ta’sirini modellashtirish va nazariy xulosalarning amaliy ma’lumotlar bilan bog‘langanligi orqali ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlarni kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni kompleks baholash usullarini takomillashtirish, yashil iqtisodiyot tamoyillari va ekonometrik modellashtirishni mazkur jarayon bilan bog‘lash imkoniyatini asoslab berishi bilan belgilanadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar “Sanoat iqtisodiyoti”, “Korxona iqtisodiyoti”, “Tarmoq iqtisodiyoti” va “Yashil iqtisodiyot” fanlari bo‘yicha keyingi ilmiy izlanishlarda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan to‘qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy salohiyatni baholash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish va eksportga yo‘naltirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy ta’lim muassasalarida “Sanoat iqtisodiyoti”, “Korxona iqtisodiyoti”, “Tarmoqlar iqtisodiyoti”, “Yashil iqtisodiyot” fanlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlashda ham foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash uslubiyotini qiymat zanjiri bo‘yicha qo‘shilgan qiymatni chuqurlashtirish darajasi, resurslar

transformatsiyasi samaradorligi hamda ishlab chiqarish bosqichlaridagi funksional uzilishlarni aniqlash mezonlari asosida takomillashtirilgan (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2026-yil 14-iyuldagi 01/06-1036 sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijaning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonalarning iqtisodiy salohiyatini baholashda qo‘shilgan qiymatni shakllantirish bosqichlari bo‘yicha iqtisodiy nomutanosibliklarni aniqlash imkoniyati yaratilgan, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash aniqligi 8,4 foizga, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash darajasi 9,1 foizga hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning iqtisodiy asoslanganligi 7,6 foizga oshgan;

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini baholash uslubini resurs salohiyati indeksi (*R*), texnologik salohiyat indeksi (*T*), moliyaviy salohiyat indeksi (*M*), kadrlar salohiyati indeksi (*K*), bozor salohiyati indeksi (*B*) va barqarorlik salohiyati indeksi (*BS*)larini yagona integral ko‘rsatkich sifatida ifodalovchi normallashtirish hamda vaznli agregatsiyalash asosida “To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksi”ni hisoblash, shuningdek iqtisodiy salohiyat darajalarini “kritik daraja” (0,0 - 0,20], “past daraja” (0,20 - 0,40], “o‘rta daraja” (0,40 - 0,60], “barqaror daraja” (0,60 - 0,80] va “yuqori daraja” (0,80 - 1,00] mezonlari bo‘yicha tasniflash taklif etilgan (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2026-yil 14-iyuldagi 01/06-1036 sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijaning amaliyotga joriy etilishi korxonalarning iqtisodiy salohiyat darajasini yagona mezonlar asosida aniqlash, rivojlanish holatini qiyosiy baholash, iqtisodiy salohiyatning zaif va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning analitik asoslarini kuchaytirishga xizmat qilgan;

to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmini iqtisodiy salohiyatning resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar, bozor va barqarorlik bloklarini TSISII integral indeksi orqali baholash, ekonometrik tahlil asosida ustuvor omillar ta’sirini aniqlash hamda iqtisodiy salohiyatning zaif bloklariga moliyaviy, texnologik, kadrlar va bozor resurslarini CASCADE qayta taqsimlash mexanizmi asosida yo‘naltirish bo‘yicha ishlab chiqilgan (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2026-yil 14-iyuldagi 01/06-1036 sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga tatbiq etish natijasida iqtisodiy salohiyatning zaif bloklarini aniqlash aniqligi 16,8 foizga, resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga maqsadli taqsimlash samaradorligi 14,3 foizga, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi 12,7 foizga hamda eksport salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezkorligi 15,4 foizga oshgan;

to‘qimachilik sanoati tarmog‘ining iqtisodiy salohiyatini prognozlash modelini asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar vaqt qatorlarining trend, sikllik va tasodifiy komponentlarini hisobga olgan holda 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish ssenariylarini shakllantirilgan (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2026-yil 14-iyuldagi 01/06-1036 sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijani amaliyotga joriy etish natijasida investitsiya va eksport ko‘rsatkichlarini prognozlash aniqligi 13,5 foizga, rivojlanish ssenariylarini baholash ishonchliligi 17,2 foizga, strategik qarorlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish tezligi 19,6 foizga oshgan hamda tarmoq rivojlanishi bilan bog‘liq xavflarni oldindan aniqlash imkoniyati 15,8 foizga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda 1 ta va mahalliy jurnallarida 5 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va tadqiqotda qo'llanilgan usullar, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"To'qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida to'qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyati va uni oshirishning nazariy jihatlari, sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash usullari va mezonlari va rivojlangan mamlakatlarning to'qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish bo'yicha tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

To'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashda keng qo'llanilayotgan an'anaviy yondashuvlar, asosan, ishlab chiqarish hajmi, rentabellik darajasi, asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va resurslardan foydalanish samaradorligi kabi umumlashtirilgan ko'rsatkichlarga tayanadi. Ammo mazkur ko'rsatkichlar korxona faoliyatining yakuniy natijalarini aks ettiradi, biroq qiymat shakllanishining ichki iqtisodiy mexanizmini, uning tarmoq ichidagi harakatini hamda qo'shilgan qiymatning qaysi bosqichlarda yaratilayotgani yoki qiymat zanjirining qaysi bo'g'inlarida yo'qotilayotganini yetarli darajada ochib bermaydi.

To'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash mezonlarini shakllantirishda har bir indikatorni qiymat zanjirining muayyan bosqichida yuzaga kelayotgan iqtisodiy nomutanosiblik yoki tarkibiy uzilishni ifodalovchi tahliliy vosita sifatida talqin qilish zarur. Bu esa baholash tizimiga qiymat yaratish jarayonining ichki mantig'ini ham kiritish imkonini beradi. Shu asosda to'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash mezonlari tizimlashtirildi (1-jadval).

Taklif etilayotgan baholash yondashuvi to'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini qiymat zanjirining alohida bosqichlari kesimida resurslardan foydalanish samaradorligi, yangi qo'shilgan qiymat yaratish, ishlab chiqarishni chuqurlashtirish, moliyaviy barqarorlik va bozor natijalarining shakllanish darajasini o'zaro bog'liq holda baholash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv qiymat zanjiridagi "zaif bo'g'inlar"ni aniqlash, muammolarni tizimli aniqlash va resurslarni ustuvor yo'nalishlarga ilmiy asosda taqsimlash imkoniyatini yaratadi. Natijada, qo'shilgan qiymatni chuqurlashtirish va korxonalarning

raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategik qarorlarni ishlab chiqish uchun mustahkam metodologik asos shakllanadi.

1-jadval

To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini qiymat zanjiri bo‘yicha baholash mezonlarining dinamik-integral tizimi[6]

Qiymat zanjiri bosqichi	Mezon	Hisoblash formulasi	Iqtisodiy mazmuni
Xomashyoni qayta ishlash	Xomashyodan foydalanish samaradorligi	$\frac{\text{Tola hajmi}}{\text{Paxta hajmi}} \times 100\ \%$	Qayta ishlangan paxtaning qancha qismi tolaga aylanganini ko‘rsatadi
	Texnologik yo‘qotishlar ulushi	$\frac{\text{Yo‘qotilgan xomashyo}}{\text{Qayta ishlangan xomashyo}} \times 100\ \%$	Qayta ishlash jarayonida yo‘qotilgan xomashyo ulushini ko‘rsatadi
	Energiya xarajatlari ulushi	$\frac{\text{Energiya xarajati}}{\text{Mahsulot qiymati}} \times 100\ \%$	Mahsulot qiymatining qancha qismi energiya xarajatlariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi
Birlamchi qayta ishlash	Qo‘shilgan qiymat yaratish samaradorligi	$\frac{\text{Yangi qo‘shilgan qiymat}}{\text{Qayta ishlash xarajati}} \times 100\ \%$	Qayta ishlash xarajatlari hisobiga qancha yangi qiymat yaratilganini ko‘rsatadi
	Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi	$\frac{\text{Haqiqiy ishlab chiqarish}}{\text{Loyihaviy quvvat}} \times 100\ \%$	Mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini ko‘rsatadi
	Sifat talabiga javob beradigan mahsulot ulushi	$\frac{\text{Sifatli mahsulot}}{\text{Jami mahsulot}} \times 100\ \%$	Jami mahsulot tarkibida sifat talabiga javob beradigan mahsulot ulushini ko‘rsatadi
Chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot	Chuqur qayta ishlashda yaratilgan qo‘shilgan qiymat ulushi	$\frac{\text{Tayyor bosqichdagi yangi qiymat}}{\text{Jami yangi qiymat}} \times 100\ \%$	Qo‘shilgan qiymatning qancha qismi tayyor mahsulot bosqichida yaratilganini ko‘rsatadi
	Qiymat zanjiri bosqichlarini korxona ichida bajarish darajasi	$\frac{\text{Ichki bosqichlar soni}}{\text{Jami bosqichlar soni}} \times 100\ \%$	Qiymat zanjirining qancha qismi korxona yoki klaster ichida bajarilishini ko‘rsatadi
	O‘z brendidagi tayyor mahsulot ulushi	$\frac{\text{Brendli mahsulot savdosi}}{\text{Jami tayyor mahsulot savdosi}} \times 100\ \%$	O‘z brendi orqali sotilayotgan tayyor mahsulot ulushini ko‘rsatadi
Moliyaviy holat	Aylanma mablag‘lar darajasi	$\frac{\text{Sof sotuv tushumi}}{\text{O‘rtacha aylanma mablag‘lar}}$	Aylanma mablag‘larning bir davrda necha marta aylanganini ko‘rsatadi.
	Xarajatlar rentabelligi	$\frac{\text{Foyda}}{\text{Jami xarajatlar}} \times 100\ \%$	Har 100 so‘mlik xarajat qancha foyda keltirganini ko‘rsatadi
	Moliyaviy mustaqillik darajasi	$\frac{\text{O‘z kapitali}}{\text{Jami aktivlar}} \times 100\ \%$	Aktivlarning qancha qismi korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilganini ko‘rsatadi
Bozor va ekspor	Eksport ulushi	$\frac{\text{Eksport tushumi}}{\text{Jami sotuv tushumi}} \times 100\ \%$	Korxona sotuvlarida eksportning ulushini ko‘rsatadi
	Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksporti ulushi	$\frac{\text{Tayyor mahsulot eksporti}}{\text{Jami eksport}} \times 100\ \%$	Eksport tarkibida tayyor va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko‘rsatadi
	Talab barqarorligi	$\frac{\text{O‘rtacha buyurtmalar}}{\text{O‘rtacha buyurtmalar soni} + \sigma}$	Buyurtmalar hajmining barqarorligini ko‘rsatadi. Bu yerda σ og‘ish - buyurtmalar hajmining standart og‘ishi. Ko‘rsatkich 1 ga yaqinlashgan sari talab barqarorroq bo‘ladi

[6] Muallif tomonidan tuzilgan.

Qiymat zanjiri bo‘yicha qayta ishlash chuqurligi koeffitsienti -to‘qimachilik tarmog‘i uchun eng muhim maxsus ko‘rsatkichlardan biri - qayta ishlash chuqurligini baholashdir. Uni quyidagi integral koeffitsient orqali ifodalash mumkin:

$$K_{qch} = \frac{1 * \Delta VA_{ip} + 2 * \Delta VA_{gazlama} + 3 * \Delta VA_{tayyor}}{3(\Delta VA_{ip} + \Delta VA_{gazlama} + \Delta VA_{tayyor})} \quad (1)$$

bunda: K_{qch} – qiymat zanjiri bo‘yicha qayta ishlash chuqurligi koeffitsiyenti, ΔVA_{ip}, $\Delta VA_{gazlama}$ va ΔVA_{tayyor} – mos ravishda ip, gazlama va tayyor mahsulot bosqichining o‘zida yangidan yaratilgan qo‘shilgan qiymat.

Mazkur formula paxta-tola resursining qay darajada yuqori bosqichli mahsulotgacha yetib borayotganini ko‘rsatadi. Agar korxona faqat ip ishlab chiqarishda to‘xtasa, mazkur koeffitsient past bo‘ladi, tayyor mahsulot ulushi ortishi bilan esa iqtisodiy salohiyat yuqori baholanadi.

Qo‘shilgan qiymatni saqlash koeffitsienti - to‘qimachilik qiymat zanjirida har bir bosqichda qiymatning saqlanishi yoki yo‘qotilishi muhim. Shuning uchun qo‘shilgan qiymatni saqlash koeffitsienti quyidagicha taklif etiladi:

$$K_{saql} = \frac{Korxona\ yoki\ klaster\ ichida\ qolgan\ jami\ yangi\ qo‘shilgan\ qiymat}{Qiymat\ zanjiri\ bo‘yicha\ jami\ yangi\ qo‘shilgan\ qiymat} \quad (2)$$

bunda: K_{saql} – qo‘shilgan qiymatni saqlash koeffitsiyenti.

Koeffitsiyent 1 ga yaqinlashgan sari qiymat zanjirida yaratilgan yangi qo‘shilgan qiymatning katta qismi korxona yoki klaster doirasida saqlanib qolayotganini bildiradi.

Yuqorida bayon etilgan yondashuvlarning muhim jihati iqtisodiy salohiyatni korxona faoliyatining alohida natijaviy ko‘rsatkichlari yig‘indisi doirasida talqin qilish bilan cheklanmay, uni qiymat zanjiri bo‘ylab shakllanadigan, turli bosqichlarda transformatsiyalanadigan hamda o‘zaro bog‘langan ichki tarkibiy elementlarning uyg‘unligi asosida rivojlanadigan murakkab iqtisodiy tizim sifatida izohlash imkonini berishida namoyon bo‘ladi. Shu bois, uni baholash jarayoni ham yagona ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, resurslardan foydalanish samaradorligi, qayta ishlash chuqurligi, qo‘shilgan qiymat shakllanishi, moliyaviy barqarorlik va bozorda raqobatlasha olish darajasi kabi o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar kesimida amalga oshirilishi lozim.

Mazkur tizimning ilmiy ahamiyati iqtisodiy salohiyatni umumiy indeks bilan birga, uni shakllantiruvchi tarkibiy elementlar hamda rivojlanishni cheklovchi omillar kesimida tahlil qilish va izohlash imkonini beradi.

Keltirilgan qiyosiy tahlil (2-jadval) natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati turli mamlakatlarda shakllangan rivojlanish modellari asosida differensial xususiyat kasb etadi hamda ularni umumlashtirilgan holda uch asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin: intensiv rivojlanish modeli (AQSh, Germaniya), eksportga yo‘naltirilgan model (Turkiya, Bangladesh) va resurs hamda katta hajmli ishlab chiqarishga asoslangan model (Xitoy, Braziliya, Qozog‘iston).

2-jadval

To‘qimachilik sanoati bo‘yicha xorijiy modellar taqqoslama tahlili[7]

Mamlakat	Iqtisodiy model	Model xususiyatlari	Ustunligi	Kamchiligi	O‘zbekistonga moslashtirish	Kutilayotgan iqtisodiy natija
AQSh	Innovatsion-intensiv model	Yuqori texnologiya, avtomatlashtirish, texnik tekstil	Yuqori qo‘shilgan qiymat, samaradorlik	Yuqori kapital talabi	Texnologik modernizatsiya, texnik tekstilni rivojlantirish	Eksport sifati oshadi, yuqori daromadli sektor shakllanadi
Braziliya	Resursga asoslangan model	Paxta bazasi, vertikal integratsiya, ichki bozor ustuvor	Barqaror ishlab chiqarish	Past qo‘shilgan qiymat	Paxtani chuqur qayta ishlash, ichki bozorni rivojlantirish	Resurslardan samarali foydalanish, sanoat barqarorligi
Germaniya	Samarador-lik modeli	Sanoat 4.0 va 5.0, energiya tejamkorlik, texnik mahsulotlar	Yuqori unumdorlik, energiya samaradorligi	Ishlab chiqarish hajmi kichik	Energiya samaradorligini oshirish, avto-matlashtirish	Xarajatlar kamayadi, raqobatbardosh-lik oshadi
Turkiya	Eksportga yo‘naltiril-gan klaster modeli	Yevropa bozori, tezkor logistika, klasterlashuv	Eksport hajmi yuqori, moslashuvchanlik	Tashqi bozorga bog‘liqlik	Klasterlashuv, logistika tizimini rivojlantirish	Eksport hajmi oshadi, bozor diversifikatsiyasi
Xitoy	Katta hajmli ishlab chiqarish modeli	Katta hajm, davlat qo‘llovi, to‘liq qiymat zanjiri	Past tannarx, global liderlik	Ekologik yuklama, past segmentga bog‘liqlik	Sanoat zonalari, davlat qo‘llovi, ishlab chiqarishni kengaytirish	Ishlab chiqarish hajmi keskin oshadi
Bangladesh	Arzon ishchi kuchi modeli	Past ish haqi, eksportga yo‘naltirilganlik, mehnat sig‘imi yuqori	Arzon ishlab chiqarish, yuqori eksport	Past texnologiya, past samaradorlik	Mehnat resurslaridan samarali foydalanish	Bandlik oshadi, eksport kengayadi
Qozog‘iston	Rivojlanish bosqichidagi resurs modeli	Ichki bozor, davlat qo‘llovi, kichik hajm	Barqaror o‘sish imkoniyati	Past eksport, past samaradorlik	Davlat qo‘llovi va qayta ishlashni rivojlantirish	Sanoat bosqichma-bosqich rivojlanadi

Germaniya tajribasi asosida Sanoat 4.0 texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli monitoring qilish, avtomatlashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishi sifatida belgilab olindi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyati tahlillari”** nomli ikkinchi bobida respublika iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoatining o‘rni va uning rivojlanish tendensiyalari, to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyati ko‘rsatkichlari dinamikasi va ularning statistik tahlili va to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatiga omillar ta’sirini ekonometrik modellar asosida baholash ko‘rsatkichlari o‘rganilgan.

2025-yilda O‘zbekiston YaIM hajmi 1849650,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, sanoatning YaIM tarkibidagi ulushi 25,6 foizga yetgan. Shu davrda ishlab

[7] Izlanishlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

chiqaradigan sanoat jami sanoatning 86,0 foizini, to‘qimachilik sanoati esa uning 10,7 foizini tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichlar to‘qimachilik sanoatining respublika iqtisodiyotidagi o‘rni va iqtisodiy salohiyatini oshirish imkoniyatlari saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

To‘qimachilik sanoati umumiy sanoat va ishlab chiqarish sanoatida muhim sohalardan bir ekanligini shubhasiz. 2016-2025-yillarda to‘qimachilik sanoatining umumiy sanoat tarkibidagi va ishlab chiqarish sanoati tarkibidagi ulushi bo‘yicha keltirilgan ma’lumotlar mazkur tarmoqning respublika sanoat tizimidagi o‘rnini baholashda muhim ahamiyatga ega (3-jadval).

3-jadval

To‘qimachilik sanoatining umumiy sanoat va ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi[8]

Yillar	Jami sanoat ulushi, %	Ishlab chiqaraish sanoatning jami sanoatdagi ulushi, %	To‘qimachilikning jami sanoatdagi ulushi, %	To‘qimachilikning ishlab chiqarish sanoatdagi ulushi, %
2016	100,0	81,8	11,9	14,6
2017	100,0	81,1	11,3	13,9
2018	100,0	80,6	10,6	13,1
2019	100,0	79,0	9,3	11,8
2020	100,0	83,0	10,0	12,0
2021	100,0	82,9	11,5	13,8
2022	100,0	83,2	11,4	13,6
2023	100,0	84,4	10,9	12,9
2024	100,0	84,7	10,2	12,0
2025	100,0	86,0	9,2	10,7

Jadvaldan ko‘rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda jami sanoat tarkibida ishlab chiqarish sanoatining ulushi yuqori darajada saqlanib qolgan. 2016-2025-yillarda ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoatdagi ulushi 81,8 foizdan 86,0 foizgacha oshib, qayta ishlash tarmoqlarining iqtisodiyotdagi mavqei kuchaygan. Shu davrda to‘qimachilik sanoatining jami sanoatdagi ulushi 11,9 foizdan 9,2 foizga, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi esa 14,6 foizdan 10,7 foizga kamaygan

To‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar ya’ni ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmi, bandlik darajasi, korxonalar soni hamda ulardan kelib chiqadigan mehnat unumdorligi, investitsiya samaradorligi, eksport ulushi va eksport-import qoplash koeffitsiyenti kabi ko‘rsatkichlar ahamiyatlikdir (4-jadval).

Tahlil jarayonida ko‘rsatkichlarning oltita asosiy yo‘nalish bo‘yicha guruhlanishi to‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatini resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar, bozor va barqarorlik omillarining o‘zaro bog‘liqligi asosida kompleks baholash zaruratidan kelib chiqadi.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4-jadval

To‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyati asosiy ko‘rsatkichlari[9]

Yillar	To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m	To‘qimachilik sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mln. so‘m	To‘qimachilik sohasida tashqi savdo aylanmasi, ming AQSH dollari	To‘qimachilik sohasi eksporti, ming AQSH dollari	To‘qimachilik sohasi importi, ming AQSH dollari	To‘qimachilik sohasida band bo‘lganlar soni, kishi	To‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar soni, birlik
2010	4845,5	269120,0	731704,8	642863,1	88841,7	1998	5690
2011	6736,9	474621,0	748160,6	652927,6	95233,0	2116	5800
2012	7672,9	513236,0	844467,7	713701,5	130765,2	2719	6110
2013	8898,3	604969,0	1027321,9	863517,9	163804,0	2923	6200
2014	10839,5	715852,0	1077083,8	913569,9	163513,9	3131	6500
2015	13241,7	568904,0	1019278,6	882974,5	136304,1	3331	6900
2016	13335,3	1195406,0	1050802,9	917147,3	133655,6	3691	8631
2017	16763,3	2079485,0	1383122,2	1138858,7	244263,5	3634	10349
2018	24835,2	3763220,0	1577574,5	1282136,5	295438,0	4767	11899
2019	29946,6	9813866,0	1966187,5	1602428,2	363759,3	5942	13540
2020	36713,9	8648476,0	2228999,1	1890274,0	338725,1	7994	16389
2021	52372,3	9261095,0	3385654,5	2939539,2	446115,3	10187	18001
2022	62850,7	13251769,0	3837742,8	3199298,1	638444,7	10821	19832
2023	71509,8	20502984,0	3859223,0	3074819,5	784403,5	14891	13040
2024	89489,0	22497557,0	3600208,8	2867435,8	732773,0	13650	9789
2025	101416,8	29363141,0	3408960,7	2632485,1	776475,6	15950	10449

Ushbu oltita guruh asosida ishlab chiqilgan integral indeks to‘qimachilik sanoatining iqtisodiy salohiyatini har tomonlama, taqqoslanadigan va ilmiy asoslangan tarzda baholash imkonini beradi (5-jadval).

Alohida salohiyat bloklari turli hil formulalar asosida hisoblanadi va yakuniy bosqichda “to‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksi (TSISII)” quyidagi umumiy formula asosida hisoblandi.

$$TSISII = 0{,}20 * R + 0{,}15 * T + 0{,}20 * M + 0{,}15 * K + 0{,}20 * B + 0{,}10 * BS \qquad (3)$$

TSISII integral indeksidagi vazn koeffitsiyentlarini aniqlashda ekspert baholash usulidan foydalanildi. Ekspertlar tarkibiga sanoat iqtisodiyoti va ekonometrika yo‘nalishidagi tadqiqotchilar, to‘qimachilik korxonalarining ishlab chiqarish, moliya va eksport bo‘yicha mutaxassislari hamda investitsiya va texnologik modernizatsiya sohasidagi ekspertlar jalb etildi. Har bir ekspert resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar, bozor va barqarorlik salohiyatining korxona iqtisodiy salohiyatiga ta’sir darajasini

[9] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

100 ballik tizim asosida baholadi. Olingan baholar har bir blok bo‘yicha o‘rta arifmetik usulda umumlashtirilib, yakuniy natijalar 1,0 ga normallashtirildi. Shu asosda R=0,20, T=0,15, M=0,20, K=0,15, B=0,20 va BS=0,10 vazn koeffitsiyentlari shakllantirildi.

Mazkur indeks alohida ko‘rsatkichlarning o‘zgarish dinamikasini yagona umumlashtirilgan mezonga birlashtirish orqali tarmoqning real iqtisodiy holati, rivojlanish darajasi va istiqboldagi salohiyatini aniqlash imkonini beradi.

5-jadval

Integral indeks ko‘rsatkichlarining guruhlanishi[10]

Guruh	Indikator	Yo‘nalish	Izoh
Resurs salohiyati (R)	Ishlab chiqarish hajmi (ICH)	Ijobiy	Tarmoq ishlab chiqarish salohiyatining hajmiy asosi.
	Korxonalar soni (KS)	Ijobiy	Tarmoqning institutsional-ishlab chiqarish bazasini ifodalaydi.
	1 ta korxonaga ishlab chiqarish (IKH)	Ijobiy	Korxonalar samaradorligini ko'rsatadi.
Texnologik salohiyat (T)	Investitsiyalar hajmi (IN)	Ijobiy	Texnologik yangilanish va modernizatsiya imkoniyatini ifodalaydi.
	1 ta korxonaga investitsiya (IKI)	Ijobiy	Investitsiya intensivligini baholaydi.
	Investitsiya samaradorligi (IS)	Ijobiy	Investitsiyaning ishlab chiqarish natijasiga aylanish darajasi.
Moliyaviy salohiyat (M)	Investitsiya samaradorligi (INV)	Ijobiy	Kapital qo'yilmalar natijadorligini moliyaviy ifodalaydi.
	Tashqi savdo saldosi (IO)	Ijobiy	Tashqi savdodan shakllanadigan sof ijobiy natijani ko'rsatadi.
	Ishlab chiqarish o'sish sur'ati (ICH)	Ijobiy	Nominal ishlab chiqarish dinamikasi va kengayish sur'atini baholaydi.
Kadrlar salohiyati (K)	Band bo‘lganlar soni (BSON)	Ijobiy	Tarmoqning ish o'rinlari yaratish imkoniyatini bildiradi.
	Mehnat unumdorligi (MU)	Ijobiy	Inson kapitalidan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi.
Bozor salohiyati (B)	Tashqi savdo aylanmasi (TSA)	Ijobiy	Tarmoqning xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini ifodalaydi.
	Eksport hajmi (EX)	Ijobiy	Tashqi bozordagi sotuv salohiyatini ko'rsatadi.
	Eksport ulushi (EU)	Ijobiy	Tashqi savdo tarkibida eksportning ustunligini ko'rsatadi.
	Importga bog‘liqlik (IB)	Salbiy	Importga nisbiy qaramlik past bo'lsa, bozor salohiyati yuqori baholanadi.
Barqarorlik salohiyati (BS)	Eksport-import qoplash koeffitsiyenti (EIQK)	Ijobiy	Tashqi savdo barqarorligi va importni eksport bilan qoplash darajasi.
	Importga bog‘liqlik (IB)	Salbiy	Importga bog'liqlik pasayishi tarmoqning barqarorligini oshiradi.

To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksining chegaraviy qiymatlari ekspertlarning fikrlari va xorijiy tajribalardagi chegaraviy qiymatlarni inobatga olgan holda shakllantirilgan (6-jadval).

[10] Muallif tomonidan tuzilgan.

6-jadval

To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksining chegaraviy qiymatlari[11]

Integral indeks qiymati	Baholash darajasi	Qisqacha izoh
(0,00-0,20]	Kritik daraja	Iqtisodiy salohiyat juda past bo‘lib, ishlab chiqarish, investitsiya, bandlik va bozor ko‘rsatkichlari zaif shakllangan bo‘ladi
(0,20-0,40]	Past daraja	Tarmoqda iqtisodiy salohiyat mavjud, biroq resurslardan foydalanish va bozor natijadorligi yetarli darajada emas
(0,40-0,60]	O‘rta daraja	Tarmoqda barqaror faoliyat mavjud, ammo ishlab chiqarish, investitsiya va eksport imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti
(0,60-0,80]	Barqaror daraja	Iqtisodiy salohiyat nisbatan yuqori bo‘lib, asosiy ko‘rsatkichlar o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ladi
(0,80-1,00]	Yuqori daraja	Tarmoq yuqori iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib, ishlab chiqarish samaradorligi, eksport salohiyati va investitsion faollik yuqori darajada shakllangan bo‘ladi

To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksining chegaraviy qiymatlari ekspertlarning fikrlari va xorijiy tajribalardagi chegaraviy qiymatlarni inobatga olgan holda (0,00-0,20] oralig‘i kritik, (0,20-0,40] past, (0,40-0,60] o‘rta, (0,60-0,80] barqaror va (0,80-1,00] yuqori iqtisodiy salohiyat darajasi mezonlari bo‘yicha baholash taklif etildi. Shu asosda to‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatining integral indeks qiymatlari hisoblab chiqilgan. Shu asosda to‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatining integral indeks qiymatlari hisoblab chiqilgan (7-jadval).

7-jadval

To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksi[12]

Yillar	R	T	M	K	B	BS	**TSISII**	**Baholash darajasi**
2010	0,0000	0,2465	0,3697	0,0000	0,3333	1,0000	**0,2776**	**Past daraja**
2011	0,0208	0,1902	0,6808	0,0961	0,3180	0,9230	**0,3392**	**Past daraja**
2012	0,0349	0,2033	0,4384	0,0739	0,2498	0,6116	**0,2474**	**Past daraja**
2013	0,0480	0,2020	0,4540	0,1081	0,2744	0,5658	**0,2584**	**Past daraja**
2014	0,0705	0,2120	0,5254	0,1661	0,3102	0,6427	**0,3022**	**Past daraja**
2015	0,0977	0,3410	0,7301	0,2354	0,3567	0,8436	**0,4077**	**O‘rta daraja**
2016	0,1247	0,1552	0,2077	0,2044	0,3850	0,9242	**0,2899**	**Past daraja**
2017	0,1799	0,1218	0,3908	0,3234	0,2945	0,4060	**0,2804**	**Past daraja**
2018	0,2619	0,1310	0,5877	0,4363	0,3004	0,3138	**0,3465**	**Past daraja**
2019	0,3229	0,1911	0,2137	0,4578	0,3907	0,3330	**0,3161**	**Past daraja**
2020	0,4145	0,1736	0,2642	0,4772	0,5598	0,6412	**0,4094**	**O‘rta daraja**
2021	0,5317	0,2023	0,5072	0,6222	0,8832	0,8672	**0,5948**	**O‘rta daraja**
2022	0,6208	0,2515	0,2496	0,7257	0,8569	0,4994	**0,5420**	**O‘rta daraja**
2023	0,5777	0,4230	0,1538	0,7498	0,7273	0,1841	**0,4861**	**O‘rta daraja**
2024	0,7009	0,5415	0,2840	0,9176	0,6718	0,1819	**0,5684**	**O‘rta daraja**
2025	0,7788	0,6733	0,1484	0,9761	0,5448	0,0000	**0,5418**	**O‘rta daraja**

[11] Muallif tomonidan tuzilgan.
[12] Muallif tomonidan tuzilgan.

Hisoblangan TSISII qiymatlariga e’tibor qaratadian bo‘lsak 2010-yildan 2014-yilgacha past darajada ekanligini, 2015-yilda o‘rta darajaga o‘tganligiga qaramasdan 2019-yilgacha past daraja saqalnib qolganini ko‘rishimiz mumkin. 2020-yildan boshlab integral indeks 0,4094 ga yetib, tarmoq iqtisodiy salohiyatida tiklanish jarayoni kuzatilgan, 2021-2025-yillarda esa indeks 0,4861-0,5948 oralig‘ida shakllanib, to‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati “o‘rta daraja”da mustahkamlangan. To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksi muntazam o‘sishga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksi[13]

Biz obyektlar sifatida tanlab olgan “Yustex” MCHJ va “Osborn Textile” MCHJ to‘qimachilik sanoati korxonalari ma’lumotlarini uzoq muddat uchun topish qisman imkonsiz bo‘lganligi sababli tahlil jarayonlarini 2021-2025 yillar oralig‘ida tahlil qilganmiz. Tahlil jarayonida mavjud ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda “Yustex” MCHJ va “Osborn Textile” MCHJ uchun TSISII hisoblangan (8-jadval).

8-jadval

“Yustex”MCHJ va “Osborn Textile” MCHJ to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati integral indeksi[14]

Korxonalar	TSISII qiymatlar				
	2021	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
Yustex	**0,1946**	**0,6774**	**0,7852**	**0,5290**	**0,6331**
Indeks chegarasi	Kritik	Barqaror	Barqaror	O‘rta	Barqaror
Osborn Textile	**0,4156**	**0,5997**	**0,4213**	**0,4005**	**0,5842**
Indeks chegarasi	O‘rta	O‘rta	O‘rta	O‘rta	O‘rta

2021-2025-yillar kesimida “Yustex” MCHJ va “Osborn textile” MChJ to‘qimachilik sanoati korxonalarining integral indekslari turlicha dinamikani namoyon

[13] Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.
Yustex” MCHJ va “Osborn Textile” MCHJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

etgan. 2021-yilda “Osborn textile” MChJ indeksi 0,4156 bilan “Yustex” MCHJning 0,1946 ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan, biroq 2022-yildan boshlab “Yustex” MCHJ integral indeksi barcha yillarda nisbatan yuqori darajada shakllangan. Ayniqsa, 2023-yilda “Yustex” MCHJ 0,7852 bilan barqaror darajaga yetgan, “Osborn Textile” MCHJ 0,4213 darajasida qolgan. 2025-yilda har ikki korxonada tiklanish kuzatilib, “Yustex” MCHJ 0,6331, “Osborn Textile” MCHJ esa 0,5842 natijani qayd etgan. Bu “Yustex” MCHJda salohiyatning yuqoriroq, “Osborn Textile” MCHJda esa nisbatan barqaror, ammo o‘rta darajada shakllanganini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari va istiqbollari”** nomli uchinchi bobida to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish va to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish prognoz senariylari ishlab chiqishga erishilgan.

To‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmini ishlab chiqishda to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar va bozor imkoniyatlarini innovatsion yondashuvlar asosida samarali birlashtirib, barqaror iqtisodiy natijaga erishish qobiliyatidir.

CASCADE mexanizmining asosiy bosqichlari va yakuniy bosqichida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi TSISII integral indeksini qayta hisoblash, bloklar bo‘yicha o‘zgarishlarni solishtirish va istiqboldagi rivojlanish ssenariylarini prognozlash orqali baholanadi. CASCADE mexanizmi to‘qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirishning uzluksiz siklini shakllantiradi (9-jadval). CASCADE mexanizmining tarkibiy qismi: konseptual ta’riflash; integral baholash; ekonometrik asoslash; ustuvorlikni belgilash; resurslarni qayta taqsimlash; amaliy joriy etish; monitoring va prognozlashdan iborat.

To‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmi iqtisodiy salohiyatning resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar, bozor va barqarorlik bloklarini TSISII integral indeksi orqali baholash, ekonometrik tahlil asosida ustuvor omillar ta’sirini aniqlash, eng zaif salohiyat bloklariga moliyaviy, texnologik, kadrlar, bozor va yashil investitsiya resurslarini CASCADE tartibida manzilli qayta taqsimlash hamda natijalarni monitoring va prognozlash asosida takomillashtirilgan.

Mazkur mexanizmning mantiqiy ketma-ketligi shundan iboratki, dastlab iqtisodiy salohiyatning mazmuni va tarkibiy bloklari aniqlanadi, keyingi bosqichda integral indeks orqali korxonaning umumiy rivojlanish darajasi baholanadi.

So‘ngra ekonometrik tahlil natijalari asosida ta’sir kuchi yuqori bo‘lgan omillar aniqlanib, zaif salohiyat bloklari ustuvorlik darajasiga ko‘ra tasniflanadi.

Shundan keyin moliyaviy, texnologik, kadrlar, marketing va ekologik resurslar CASCADE tartibida manzilli qayta taqsimlanadi. Yakuniy bosqichda amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi TSISII integral indeksini qayta hisoblash, dinamik monitoring va prognoz ssenariylari orqali baholanadi.

Natijada “raqamli ma’lumotlar, TSISII asosida baholash, zaif bloklarni aniqlash, CASCADE asosida resurslarni qayta taqsimlash, natijalarni raqamli monitoring qilish, TSISII ni qayta baholash” ketma-ketligidagi uzluksiz boshqaruv sikli shakllanadi.

9-jadval

CASCADE mexanizmining asosiy bosqichlari[15]

CASCADE	Bosqich nomi	Mazmuni	Metodik asosi	Kutiladigan natija
C	**Conceptualization - iqtisodiy salohiyatni konseptual ta'riflash**	Iqtisodiy salohiyatning mazmuni, tarkibiy bloklari, baholash mezonlari va boshqaruv tamoyillari aniqlanadi.	Resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar, bozor va barqarorlik salohiyatlari ajratiladi.	Baholash va boshqaruv uchun nazariy asos shakllanadi.
A	**Assessment - integral indeks asosida baholash**	Korxona iqtisodiy salohiyati TSISII integral indeksi orqali kompleks baholanadi.	Ko‘rsatkichlar 0 dan 1 gacha normallashtiriladi, blok indekslari hisoblanadi va umumiy integral indeks shakllantiriladi.	Korxonaning umumiy iqtisodiy salohiyat darajasi aniqlanadi.
S	**Significance analysis - ekonometrik ahamiyatni aniqlash**	Iqtisodiy salohiyatga ta'sir qiluvchi asosiy omillar regressiya va korrelyatsion tahlil orqali baholanadi.	Omillar ta'siri miqdor jihatdan ekonometrik modellar asosida baholanadi.	Eng kuchli ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi.
C	**Classification and prioritization - tasniflash va ustuvorlikni belgilash**	Integral indeks va ekonometrik natijalar asosida eng zaif salohiyat bloki aniqlanadi.	Integral indeks natijalariga asoslangan reyting va monitoring tizimi taklif etilgan.	Qayta taqsimlash uchun ustuvor yo‘nalish belgilanadi.
A	**Allocation - resurslarni manzilli qayta taqsimlash**	Moliyaviy, texnologik, kadrlar, bozor va yashil investitsiya resurslari zaif bloklarga yo‘naltiriladi.	Bloklar kesimida resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar, bozor va barqarorlik salohiyati ajratilgan.	Resurslar umumiy emas, maqsadli va ustuvorlik asosida taqsimlanadi.
D	**Deployment - amaliy joriy etish**	Qayta taqsimlangan resurslar asosida modernizatsiya, raqamli axborot almashinuvi va monitoring tizimlari, raqamlashtirish, eksport, kadrlar tayyorlash va yashil texnologiyalar joriy qilinadi.	Tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlar orqali salohiyat bloklari kuchaytiriladi.	Boshqaruv qarori amaliy natijaga aylantiriladi.
E	**Evaluation and forecasting - baholash va prognozlash**	TSISII qayta hisoblanadi, natijalar solishtiriladi va keyingi davr uchun prognoz ssenariylari ishlab chiqiladi.	Integral indeks 0 dan 1 gacha baholash diapazonida tasniflanadi.	Mexanizm samaradorligi aniqlanadi va yangi sikl boshlanadi.

Ushbu mexanizm asosida shakllantirilgan ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi to‘qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy salohiyatni kompleks baholash, zaif bo‘g‘inlarni aniqlash va resurslarni manzilli yo‘naltirish imkonini beradi. Shuningdek, CASCADE qayta taqsimlash mexanizmi korxona resurslarini iqtisodiy salohiyatning zaif komponentlari bo‘yicha aniqlangan ustuvorlik darajasiga muvofiq manzilli yo‘naltirish imkonini beradi (2-rasm).

[15] Izlanishlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan



2-rasm. To'qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirishning integral baholash va CASCADE qayta taqsimlash mexanizmi[16]

[16] Muallif ishlanmasi.

To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash va uni oshirish yo‘nalishlarini belgilashda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognoz qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Resurslarning kelgusida qanday natija berishi, tarmoqning tashqi va ichki o‘zgarishlarga qay darajada moslasha olishi hamda mavjud imkoniyatlarni iqtisodiy o‘sish manbaiga aylantirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, prognozlash tarmoqning kelajakdagi rivojlanish parametrlarini oldindan aniqlash, iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni baholash va istiqboldagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, to‘qimachilik sanoati tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari ishlab chiqildi.

Prognoz qiymatlarini ishlab chiqishda eksponensial hamda ARIMA modellaridan foydalanilgan. Yuqoridagi modellar asosida to‘qimachilik sanoatining iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan o‘rta muddatli pessimistik, realistik va optimistik prognoz senariylari ishlab chiqildi (10-jadval).

10-jadval

To‘qimachilik sanoatining iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlari prognoz senariylari[17]

Ko‘rsatkichlar	Senariylar	2026	2027	2028	2029	2030
TSISII ($TSISII_t$=0,002-0,26 $TSISII_{t-1}$-0,43 $TSISII_{t-2}$-1,0e_t)	Pessimistik	0,4823	0,5406	0,5711	0,5956	0,6362
	Realistik	0,5633	0,6216	0,6521	0,6766	0,7172
	Optimistik	0,6443	0,7026	0,7331	0,7576	0,7982
To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m (Q_t=3879,45$e^{0,2057t}$)	Pessimistik	108821,2	138298,7	174518,5	219022,7	273706,2
	Realistik	118673,2	148150,7	184370,5	228874,7	283558,2
	Optimistik	128525,2	158002,7	194222,5	238726,7	293410,2
To‘qimachilik sohasiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mln. so‘m (I_t=116869,21$e^{0,34t}$)	Pessimistik	32180,4	45790,3	64796,4	91338,3	128403,9
	Realistik	33305,4	46915,3	65921,4	92463,3	129528,9
	Optimistik	34430,4	48040,3	67046,4	93588,3	130653,9
To‘qimachilik mahsulotlari eksport hajmi, ming AQSH dollari (E_t=116336,6+0,41E_{t-1})	Pessimistik	2421427,4	2480430,9	2573605,1	2680584,7	2793140,3
	Realistik	2606905,4	2665908,9	2759083,1	2866062,7	2978618,3
	Optimistik	2792383,4	2851386,9	2944561,1	3051540,7	3164096,3
Asosiy vositalar qiymati, mlrd. so‘m (T_t=4018,536$e^{0,243t}$)	Pessimistik	56137,8	72141,0	92545,6	118562,3	151734,6
	Realistik	58185,8	74189,0	94593,6	120610,3	153782,6
	Optimistik	60233,8	76237,0	96641,6	122658,3	155830,6
To‘qimachilikda band ishchilar soni, kishi (L_t=2301,396$e^{0,183t}$)	Pessimistik	16199,1	19657,5	23810,4	28797,1	34785,1
	Realistik	17224,1	20682,5	24835,4	29822,1	35810,1
	Optimistik	18249,1	21707,5	25860,4	30847,1	36835,1

Prognoz natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishning uchta ehtimoliy yo‘nalishi ichida realistik senariy eng maqbul variant hisoblanadi. Mazkur senariy tarmoqda kuzatilayotgan mavjud iqtisodiy tendensiyalar, investitsiya faolligi, eksport imkoniyatlari va mehnat resurslari

[17] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

dinamikasining izchil davom etishiga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, realistik senariy tarmoqning amalda shakllangan rivojlanish yo‘nalishiga asoslanadi.

Pessimistik senariyda ko‘rsatkichlar o‘sishi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, uning sur'ati tarmoqning mavjud salohiyatidan to‘liq foydalanish imkonini bermaydi. Natijada, ishlab chiqarish hajmi, eksport ko‘lami va bandlik darajasining o‘sishi nisbatan sekin kechadi. Optimistik senariy esa yuqori o‘sish sur'atlarini nazarda tutishiga qaramasdan uni amalga oshirish katta hajmdagi investitsiyalar, tashqi bozorlarda barqaror talab va qulay tashqi iqtisodiy sharoitlarni talab qiladi. Bunday shartlarning bir vaqtning o‘zida to‘liq ta'minlanishi ehtimoli imkonsiz, odatda.

Yuqoridagilarga asoslanib, realistik senariy optimal variant sifatida baholandi, Unga ko‘ra, 2030-yilga kelib to‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati integral indeksi (TSISII) 0,7172 ga, ishlab chiqarish hajmi 283,6 trln. so‘mga, eksport hajmi 2,98 mlrd. AQSH dollariga, asosiy vositalar qiymati 153,8 trln. so‘mga va bandlik darajasi 35,8 ming kishiga yetishi mumkin. Biroq, mazkur istiqboldagi ko‘rsatkichlar tarmoqning iqtisodiy imkoniyatlari bilan mutanosib bo‘lib, ularga mavjud resurslardan samarali foydalanish hisobiga erishish mumkin.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirilgan:

1. To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar, bozor va barqarorlik imkoniyatlarining o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadigan ko‘p tarkibli iqtisodiy tizim sifatida tavsiflandi. Innovatsion va raqamli yondashuvlarning joriy etilishi ushbu imkoniyatlarni ishlab chiqarish samaradorligi, qo‘shilgan qiymat va barqaror iqtisodiy natijaga aylantirish jarayonini kuchaytirishi asoslandi.

2. Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashga doir mavjud usullar qiyosiy o‘rganilib, DEA, stoxastik chegara tahlili, omillar unumdorligi, integral indeks, AHP, TOPSIS, klaster va global qiymat zanjiri yondashuvlarining qo‘llanish imkoniyatlari baholandi. Qiymat zanjiri davomida resurslardan foydalanish samaradorligi, qo‘shilgan qiymat yaratish darajasi, texnologik yo‘qotishlar va bog‘liq uzilishlarni birgalikda baholash korxonaning zaif bo‘g‘inlarini aniqlash imkoniyat yaratildi.

3. Xorijiy tajribalarni qiyosiy o‘rganish natijasida AQSh va Germaniya tajribasida texnologik modernizatsiya va innovatsiyalar, Turkiya modelida eksport integratsiyasi va klasterlashuv, Braziliya hamda boshqa resursga tayanuvchi mamlakatlarda esa xomashyoni chuqur qayta ishlash omillari ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi. O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni bevosita ko‘chirishdan ko‘ra, mavjud xomashyo bazasi, ishlab chiqarish tuzilmasi, eksport imkoniyatlari va texnologik rivojlanish darajasiga moslashtirib uyg‘unlashtirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq deb topildi.

4. Respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlarni tahlil qilish to‘qimachilik sanoatining qayta ishlash sanoati tizimida barqaror iqtisodiy mavqega ega ekanini ko‘rsatdi. 2016-2025-yillarda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

13,3 trln. so‘mdan 101,4 trln. so‘mgacha oshib, tarmoqning ishlab chiqarish va qiymat yaratish imkoniyatlari kengayganini ko‘rsatadi. 2025-yilda to‘qimachilikning jami sanoatdagi ulushi 9,2 foizni, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi esa 10,7 foizni tashkil etgan. Mazkur tendensiyalar boshqa qayta ishlash tarmoqlarining nisbatan tezroq rivojlanishiga qaramay, to‘qimachilik sanoatining bandlik, eksport, xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishdagi strategik ahamiyatini saqlab qolayotganini ko‘rsatdi.

5. To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatining 2010-2025-yillardagi dinamikasi ishlab chiqarish, investitsiya, tashqi savdo, asosiy vositalar, bandlik va boshqa o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar asosida statistik jihatdan baholandi. Resurs, texnologik, moliyaviy, kadrlar, bozor va barqarorlik salohiyatlarini birlashtiruvchi TSISII integral indeksi tarmoq iqtisodiy salohiyatining davrlar bo‘yicha notekis, biroq umumiy jihatdan rivojlanib borganini ko‘rsatdi. Korxona darajasidagi hisob-kitoblarda 2025-yilda “YUSTEX” MChJ integral indeksi 0,6331 darajasida shakllanib, barqaror guruhga kirgan bo‘lsa, “OSBORN Textile” MChJda ushbu ko‘rsatkich 0,5842 ni tashkil etib, o‘rta darajada baholandi. Qiyosiy natijalar iqtisodiy salohiyatni shakllantiruvchi bloklar korxonalar kesimida turlicha rivojlanishini ko‘rsatib, ularni yagona integral natija bilan birga tarkibiy o‘zgaruvchilar bo‘yicha ham muntazam diagnostika qilish zarurligini ko‘rsatadi.

6. To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi omillarning statistik bog‘liqligi ko‘p omilli ekonometrik model asosida baholandi va model diagnostik testlar orqali tekshirildi. Hisob-kitoblarda ishlab chiqarish hajmi o‘sishi iqtisodiy salohiyat indeksi dinamikasi bilan eng kuchli ijobiy bog‘liqlikni namoyon etib, uning koeffitsiyenti 1,2168 ni, eksport bo‘yicha koeffitsiyent esa 0,4146 ni tashkil etdi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va asosiy vositalar ham ijobiy bog‘liqlik ko‘rsatdi. Investitsiya, import va bandlik bo‘yicha qayd etilgan manfiy koeffitsiyentlar kapital qo‘yilmalarning vaqt bo‘yicha kechikkan samarasi, import resurslariga bog‘liqlik hamda bandlik o‘sishining mehnat unumdorligi bilan mutanosib kechishi zarurligi nuqtai nazaridan izohlandi. Breusch-Pagan, Breusch-Godfrey, Ramsey RESET hamda VIF natijalari modelning statistik jihatdan qo‘llash mumkinligini ko‘rsatib, ishlab chiqarish samaradorligi, eksport faolligi, texnologik baza va resurslardan unumli foydalanishni boshqaruv qarorlarida ustuvor hisobga olish lozim bo‘lgan yo‘nalishlar sifatida belgilash imkonini berdi.

7. Mavjud resurslarni boshqarish, dinamik qobiliyatlar, Sanoat 4.0 yetukligi va global qiymat zanjiri yondashuvlarining qiyosiy tahlili iqtisodiy salohiyatning alohida jihatlarini chuqur yoritishi bilan birga, zaif blokni aniqlash va resurslarni miqdoriy natijalar asosida qayta yo‘naltirish masalasi yagona boshqaruv tizimida yetarli darajada birlashtirilmaganini ko‘rsatdi. Aniqlangan metodologik bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida TSISII integral baholash, ekonometrik ahamiyatni aniqlash va resurslarni manzilli qayta taqsimlash jarayonlarini o‘zaro bog‘lovchi CASCADE mexanizmi taklif etildi. Mexanizmda past indeksga ega salohiyat bloki ekonometrik tahlilda yuqori ta’sirga ega omillar bilan birgalikda ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, moliyaviy, texnologik, kadrlar, bozor va boshqa resurslarni shu yo‘nalishlarga maqsadli safarbar etish nazarda tutilgan. Amalga oshirilgan choralarni TSISII orqali qayta baholash,

raqamli monitoring va prognoz natijalari asosida boshqaruv qarorlarini yangilab borish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishning uzluksiz boshqaruv sikli shakllantirildi.

8. To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatining istiqboldagi rivojlanishini baholash uchun 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan pessimistik, realistik va optimistik ssenariylar ARIMA hamda trend modellaridan foydalanilgan holda ishlab chiqildi. Mavjud iqtisodiy tendensiyalar, investitsion faollik, eksport imkoniyatlari va mehnat resurslari dinamikasini hisobga olgan realistik ssenariy tarmoqning amaldagi rivojlanish yo‘nalishiga eng yaqin variant sifatida baholandi. Ushbu ssenariyga ko‘ra, 2030-yilda TSISII 0,7172 ga, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 283,6 trln. so‘mga, eksport hajmi 2,98 mlrd. AQSH dollariga, asosiy vositalar qiymati 153,8 trln. so‘mga va bandlik 35,8 ming kishiga yetishi prognoz qilindi. Olingan natijalar istiqboldagi iqtisodiy salohiyatni oshirish investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni texnologik yangilash, eksportni rivojlantirish va tarkibiy mutanosiblikni ta’minlash bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib, strategik rejalashtirish uchun amaliy mo‘ljallarni belgilab berdi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.1.23.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЮЛДАШЕВ ГОЛИБЖОН ТУРГУНОВИЧ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

08.00.03 – Экономика промышленности

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2024.2.PhD/Iqt3992.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Исмаилов Акмал Махсудович** доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Муратова Шохиста Ниматуллаевна** доктор экономических наук, профессор
	Хакимов Зиёдулла Ахмадович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	**Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2026 г. в _____ час. на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.23.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете (Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-01-49, факс: (99871) 239-27-23, e-mail: info@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрацыонный № _____). Адрес: 100066, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.

(протокол реестра № _____ от «_____» _____ 2026 года).

Ш.Э. Синдаров
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Ж.С. Файзуллаев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Т.С. Кучкаров
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой экономике текстильная и швейная промышленность приобретает стратегическое значение как важный компонент производства, занятости, международной торговли и глобальных цепочек создания стоимости. По данным Международной организации труда за 2025 год, экономический масштаб мировой швейной промышленности составляет около 1,77 трлн. долларов США, а в данной отрасли по всему миру занято свыше 90 млн. человек[1]. По данным Всемирной торговой организации, в условиях роста стоимостного объема мировой торговли товарами на 2 процента в 2024 году, объем торговли текстильной продукцией вырос на 1 процент, а швейно-трикотажными изделиями - на 3 процента[2]. Данные тенденции свидетельствуют о том, что конкурентные преимущества в отрасли, наряду с расширением объемов производства, во все большей степени зависят от уровня развития возможностей эффективного использования ресурсов, технологической модернизации, цифровизации, экологической устойчивости и создания высокой добавленной стоимости.

Обострение конкурентной среды на мировом текстильном рынке, изменчивость цен на энергоресурсы, рост логистических затрат, ужесточение экологических стандартов и требований к устойчивому производству требуют новых подходов к оценке и повышению экономического потенциала предприятий. При этом недостаточно лишь наращивания производственных мощностей: финансовая устойчивость предприятия, техническое состояние основных фондов, производительность труда, инновационная активность, цифровое управление, ресурсосберегающие технологии и адаптивность к рыночным условиям должны рассматриваться как единый слаженный механизм. В частности, сокращение потребления энергии и воды на основе принципов «зеленой экономики», переработка отходов, выпуск экологически чистой продукции и деятельность в соответствии с международными стандартами становятся одним из ключевых факторов формирования долгосрочных конкурентных преимуществ текстильных предприятий.

Текстильная промышленность также является одной из важнейших отраслей экономики Узбекистана. В частности, в 2024 году экспорт текстильной продукции составил 2,867 млрд. долларов США, что составляет 10,6% от общего объема экспорта. В 2025 году экспорт текстильной продукции достиг 2,1 млрд. долларов США, при этом доля готовой текстильной продукции в структуре экспорта составила 51,4%, а пряжи - 28,5%. Вместе с тем в 2025 году в республике было произведено текстильной продукции на сумму 58,5 трлн. сумов, что составило 8,9% от общего объема промышленного производства. Хотя эти показатели свидетельствуют о наличии потенциала роста в отрасли, анализ указывает на существование проблем в структуре экспорта, эффективности производства,

[1] International Labour Organization (ILO) (2025) The Heat Is On: How Heat Stress Impacts the Apparel Industry, Jobs, and Worker Health. Geneva: International Labour Organization. DOI: 10.54394/CGWS6514.
[2] World Trade Organization (WTO) (2025) Global Trade Outlook and Statistics: April 2025. Geneva: World Trade Organization, p. 8.

технологическом обновлении и ресурсосбережении, что требует проведения глубоких научных исследований в данном направлении. Вышеизложенное подтверждает актуальность настоящего исследования и его направленность на решение ключевых современных задач.

Результаты данного исследования в определенной степени послужат реализации задач, определенных указами Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан – 2030»,УП-14 от 16 ноября 2021 года «О мерах по регулированию деятельности хлопково-текстильных кластеров», УП-2 от 10 января 2023 года «О мерах по поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, коренному реформированию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, а также дальнейшему повышению экспортного потенциала сферы», а также Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 733 от 4 декабря 2021 года «Об утверждении Положения о порядке по организации деятельности хлопково-текстильных кластеров» и другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурно-просветительское развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы экономического потенциала промышленных предприятий, стратегического управления, эффективного использования ресурсов предприятий и формирования конкурентных преимуществ исследованы в научных трудах таких зарубежных ученых-экономистов, как И.Ансофф, П.Ф. Друкер, Р.Каплан, Д.Нортон, Т.Коупленд, Т.Коллер, Дж.Муррин, Сунь-цзы[3] и др. В трудах этих ученых теоретически обоснованы вопросы стратегии предприятия, эффективности управления, создания стоимости, оценки результативности, системы сбалансированных показателей и обеспечения долгосрочной конкурентоспособности.

В странах СНГ вопросы экономического потенциала предприятий, производственных мощностей, финансового анализа, стратегического планирования и оценки ресурсов предприятий исследовались такими учеными, как В.М. Архипов, С.Б. Барнгольц, И.Н. Богатая, М.И. Бухалков, Е.В. Жоглина, Л.Ю. Ильина, Г.Б. Клейнер, В.В. Ковалев, Р.В. Марушков, Б.А. Райзберг, Г.В. Савицкая, Л.С Сосненко, Н.К. Темнова, А.Д. Шеремет[4] и др. В их научных

[3] Ансофф И. Новая корпоративная стратегия (The New Corporate Strategy). – Питер, 1999. – 416 с.; Друкер П.Ф. Менеджмент. Вызовы XXI века. – М.: “Манн, Иванов и Фербер”, 2012. – 256 с.; Каплан Р., Нортон Д. Организация, ориентированная на стратегию. Как в новой бизнес-среде преуспевают организации, применяющие сбалансированную систему показателей: пер. с англ. – М.: ЗАО “Олимп-Бизнес”, 2005. – 416 с.; Коупленд Т., Коллер Т., Муррин Дж. Стоимость компаний: оценка и управление: пер. с англ. – М.: ЗАО “Олимп-Бизнес”, 2008. – 576 с.; Сунь-сзы. Искусство стратегии. Классические труды / пер. с кит., предисловие и комментарии Н.И. Конрада. – М.: Эксмо; СПб.: Мидгард, 2006. – 528 с.

[4] Архипов В.М. Проектирование производственного потенциала объединений (теоретические аспекты). – Л.: Изд. ЛГУ, 2009. – С. 75–89; Барнголс С.Б. Экономический анализ хозяйственной деятельности на современном

подходах важное место занимают ресурсы, формирующие экономический потенциал, их оборачиваемость, влияние на финансовые результаты, а также методы планирования и анализа производственных процессов.

В Узбекистане вопросы развития промышленной и текстильной отраслей, повышения экономического потенциала предприятий, обеспечения конкурентоспособности, кластеризации и расширения экспортных возможностей исследовались И.И. Искандаровым, С.С.Гулямовым, М.Л. Турсунходжаевым, А.Ш. Бекмуродовым, М.Р. Болтабаевым, Б.Т. Салимовым, Н.М. Махмудовым, А.М. Кадыровым, М.К. Пардаевым, Р.И. Нуримбетовым, А.У. Бурхановым, А.А. Тилляходжаевым, Г.Г. Умаровой, А.М. Исмаиловым[5] и другими отечественными учеными. В данных исследованиях представлены важные научные выводы, касающиеся отраслевых особенностей промышленных предприятий, конкурентоспособности текстильной продукции, модернизации производства, развития маркетинговой и экспортной деятельности.

